

ODAM SAVDOSI JINOYATLARINI TERGOV QILISHDA KECHIKTIRIB BO'LMAS HARAKATLAR AHAMIYATI

Abdullaeva Saidabonu Sa'dullaevna

*O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
magistraturasi tinglovchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada odam savdosi jinoyatlarini tergov qilish jarayonida kechiktirib bo'lmaz tergov harakatlarining o'rni va ahamiyati tahlil etiladi. Jinoyat sodir bo'lgan paytdan boshlab tezkor va aniq harakatlar bilan dalillarni yig'ish, guvohlarni so'roq qilish va jabrlanuvchilarning huquqiy himoyasini ta'minlash bu turdagi jinoyatlarni ochishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, maqolada tergovga oid amaliyotda uchraydigan muammolar, ularni bartaraf etish yo'llari hamda xalqaro tajriba misolida kechiktirilmas harakatlarning samaradorligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: odam savdosi, tergov harakatlari, jinoyat-protsessual qonunchilik, dalillar, tezkorlik, jabrlanuvchi, huquqiy himoya, xalqaro tajriba.

Kirish:

Odam savdosi – zamonaviy jamiyat uchun xavfli jinoyatlardan biridir. Bu jinoyat turining eng og'ir jihati shundaki, u inson huquqlari, erkinligi va sha'niga tajovuz qiladi. Shu boisdan, bunday jinoyatlarni tergov qilishda kechiktirib bo'lmaz tergov harakatlarini amalga oshirish dolzarb ahamiyatga ega.

odam savdosiga qarshi kurashish — odam savdosining oldini olish, uni aniqlash, unga chek qo'yish, uning oqibatlarini minimallashtirish, odam savdosidan jabrlanganlarga yordam ko'rsatish bo'yicha faoliyat;

odam savdosi — kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish yoxud boshqa majburlash shakllaridan foydalanish, o'g'irlash, firibgarlik, aldash, hokimiyatni suiiste'mol qilish yoki vaziyatning qaltisligidan foydalanish orqali yoxud boshqa shaxsni nazorat qiluvchi shaxsning roziligini olish uchun uni to'lovlar yoki manfaaddor etish evaziga og'dirib olish orqali odamlardan foydalanish maqsadida ularni yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish. Odamlardan foydalanish boshqa shaxslarning fohishaligidan foydalanishni yoki ulardan shahvoniy foydalanishning boshqa shakllarini, majburiy mehnat yoki xizmatlarni, qullik yoki qullikka o'xshash odatlarni, erksiz holat yoxud inson a'zolari yoki to'qimalarini ajratib olishni anglatadi;

odam savdosi bilan shug'ullanuvchi shaxs — mustaqil ravishda yoki bir guruh shaxslar tarkibida odam savdosi bilan bog'liq har qanday harakatni sodir etuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs, shuningdek o'z harakatlari bilan odam savdosiga ko'maklashadigan, xuddi shuningdek garchi o'z mansab vakolatlariga ko'ra to'sqinlik qilishi va qarshi kurashishi shart bo'lsa ham odam savdosiga to'sqinlik qilmaydigan yoki qarshi kurashmaydigan mansabdor shaxs³⁹.

Asosiy qism:

Kechiktirib bo'lmaz tergov harakatlari tergovchining jinoyat haqidagi dastlabki ma'lumotga ega bo'lgach darhol bajarilishi lozim bo'lgan protsessual harakatlar hisoblanadi. Ular orasida hodisa joyini ko'zdan kechirish, dalillarni yig'ish, jabrlanuvchi va guvohlarni so'roq qilish, shubhali shaxslarni aniqlash va hibsga olish kabi muhim harakatlar mavjud.

Agar bu harakatlar vaqtida amalga oshirilmasa, dalillar yo'qolib ketishi, guvohlar yodidan voqeani chiqarib yuborishi yoki jabrlanuvchi xavf ostida qolishi mumkin. Ayniqsa, odam savdosi jinoyatlarida jabrlanuvchining psixologik holati inobatga olinib, unga nisbatan maxsus yondashuv zarur bo'ladi.

Shuningdek, xalqaro tajribada, masalan, Yevropa Ittifoqi yoki AQShda odam savdosi jinoyatlarini tergov qilishda maxsus tergov guruhlar, tezkor rejalashtirish tizimlari va himoyalangan intervyular muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa:

Odam savdosi jinoyatlarini ochishda tergov harakatlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi muhim omil hisoblanadi. Kechiktirib bo'lmaz harakatlarning samarali tashkil etilishi bilan jinoyatni fosh etish, jabrlanuvchini himoya qilish va adolatni tiklashga erishiladi. Shu sababli huquqni muhofaza qiluvchi organlar bu borada o'z malakasini doimiy oshirib borishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sirojov, O. O., & Arabov, B. (2020). Politics Of Uzbekistan In Solving Border Problems In Central Asia. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 2(11), 15-20.
2. Isomiddinovich, A. B. (2024). KORRUPSIYA VA UNING MANBALARI. *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR*, 1(1), 337-340.

³⁹ <https://lex.uz/mact/-1339436>

3. Isomiddinovich, A. B. (2024). COOPERATION OF STATE AND PUBLIC INSTITUTIONS IN THE FIGHT OF CORRUPTION. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 6(06), 52-54.

4. ARABOV, B. (2024). Mechanisms for effective anti-corruption in Central Asia.

5. Арабов, Б. (2024). Эффективные механизмы борьбы с коррупцией в Центральной Азии. *Общество и инновации*, 5(3), 200-204.

6. Арабов, Б. И. (2024). МАРКАЗИЙ ОСИЁДА КОРРУПЦИЯНИНГ НАМОЁН БЎЛИШИ ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. *XXI Asr: Fan va ta'lim masalalari (XXI Век: Вопросы науки и образования)*, 1, 132-145.

7. Sirojov, O., & Arabov, B. (2022). Uzbekistan-Afghanistan Cooperation: Need, Opportunity and Prospects. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(5).

